

**TIBBBIY BILIMLARNI O'RGATISHDA MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINI
TADBIQ ETISH***Aliyev Nurillo Abdiqayumovich**FJSTI Biofizika va AT kafedrasi assistenti*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitishni yaratilishi haqida fikr yuritildi. Tibbiyot talabalari bilan birgalikda Tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. Masofaviy ta'lim tizimining tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni masofadan o'qitishning dolzarb mavzulari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Masofadan o'qitish, masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyasi, zamonaviy tibbiy texnikalar.

Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global komp'yuter tarmog'ini rivojlanishi butun dunò ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Birinchidan, o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunèviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jaraèniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari èrdamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro

muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jaraenida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinaetgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz. Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir. Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol.

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqa sohalarni aytishimiz mumkin. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qitishning yangi shakli va mustaqil o'qitishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan turib yoki odatdagidek sinfxonalarida ta'lim olish - bu ko'plab abituriyentlarni qiynayotgan savol. Ko'pincha o'quvchilar masofaviy ta'lim olishni tanlashdan qo'rqishadi, chunki ular ushbu ta'lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar. Agar siz shu tartibda bilim olishni xohlasangiz, masofaviy bilim olishning afzalliklari va kamchiliklarini tushunib olishingiz lozim. Bugungi zamonaviy sharoitlardan kelib chiqqan holda Tibbiyot xodimlari va ularning talaba yoshlari uchun yurtimiz prezidenti muhtaram SH.M.Mirziyoyev tomonidan judayam yuqori sifatga ega bo'lgan zamonaviy tibbiy texnikalar olib kelindi va ular yurtimizning deyarli har bir hududiga yetib bordi va

bunday zamonaviy tibbiy texnikalardan foydalangan holda yurtimiz fuqorolariga sifatli tibbiy tashxislar qo'yilmoqda va malakali shifokorlarimiz tomonidan bunday davolash usullarini va tashxislash jarayonlarini boshqa joydan turib ham tibbiyot talabalari malakaviy amaliyot sifatida undan foydalanish ko'nikmalarini qo'shimcha o'rganishib kelishmoqda bu esa o'z navbatida talabalar bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va uzoq masofalarini yaqin qilishdan iborat bo'lgan muhim jabhalarida yordam bo'lib kelmoqda hamda ushbu masofaviy ta'lim tizimini tadbiiq etishda har bir tibbiyot xodimi yoki uning talabasi o'z bilimlarini va malakalarini boshqa Oliy ta'lim muassasasi talabalaridan yoki Tibbiyot xodimlaridan yetarli tajribalarni almashishmoqda bu esa masofali o'qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot kommunikatsion texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plagan. Masofaviy ta'lim texnologiyalari - bu ta'lim oluvchi va pedagog xodimning to'liq yoki qisman masofadan o'zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab amalga oshiriladigan ta'lim texnologiyalari tushuniladi. Masofaviy ta'lim sohasida nufuzli nazariy ishlanmalar mavjudligiga qaramasdan, ta'lim jarayonini tashkil qilish shakli sifatida hozirda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kengroq hisoblanadi. Masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashda ta'lim oluvchi mashg'ulotda qatnashmaydi, lekin topshiriqlarni bajaradi va tyutor bilan elektron pochta orqali muloqot qiladi yoki tyutor ta'lim oluvchilarga darsdan tashqari vaqtda blog yoki sayt orqali konsultatsiya beradi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari kunduzgi, sirtqi, kunduzgi-sirtqi; eksternat shakllarida; ta'limning ma'lum bosqichlarida; asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin. Masofaviy ta'lim texnologiyalarida qo'llaniladigan aloqa usuli har biri turli bo'lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli elektron resurslar yordamida o'rganish va boshqalardan iborat. Shunday qilib, masofaviy ta'lim texnologiyalariga lokal o'rnatilgan dasturlar va trenajyorlar bo'yicha o'qitish ham kiradi. Ba'zan masofaviy ta'limning eskirayotgan texnologiyalariga axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanmasdan amalga oshiriladigan o'zaro faoliyat (teleradioeshittirish, telefoniya, materiallarni pochta orqali jo'natish) ham kiritiladi. "Masofaviy o'qitish" atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo'g'ini bo'lib, Viskonsin shtati Universiteti tomonidan 1892-yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo'llanilgan. Masofaviy deb masofadan turib tashkil qilingan ta'lim tushunilgan. Unga "korrespondentlik o'qitish", "uyda o'qish" va boshqalar sinonim hisoblangan. Xorijiy davlatlarda masofaviy o'qitish bo'yicha bir qator muassasalar va olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va masofaviy o'qitish haqida turlicha

fikrlarni bildirishgan. Amerikaning masofaviy o‘qitish assotsiatsiyasi mutaxassislari (The United States Distance Learning Association — USDLA) masofaviy o‘qitish deganda - ta’lim oluvchi va tyutorning turli geografik makonda bo‘lganlari holda, o‘quv jarayonini tashkil etish uchun elektron vositalar va nashr qilingan qo‘llanmalardan foydalanib o‘qitishni tushunishgan. Masofaviy o‘qitish sohasi bo‘yicha xorijlik mutaxassislardan biri “distance education” atamasini tushuntirish borasida masofaviy o‘qitish jarayonining ikki asosiy belgisini ko‘rsatadi: ta’lim berishning nashr shaklida va video yoki audioyozma usulda bo‘lishini, shu bilan birga, kommunikatsiyaning tashkil etilishi masofaviy turib turli xil zamonaviy texnika vositalari bilan aloqa qilish ekanini ta’kidlaydi.

E.S.Polat masofaviy o‘qitishni tyutor va ta’lim beruvchilarning hamda ta’lim oluvchilarning bir-birlari bilan o‘zaro faoliyatlari masofaviy amalga oshiriladigan va internet texnologiyalar yoki boshqa interfaol texnologiyalarga xos maxsus vositalar orqali amalga oshiriladigan o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan barcha komponentlarni (maqsadlar, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, ta’lim vositalari)ni aks ettiradigan mustaqil ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydi. A.A.Andreev turli ta’riflarni tahlil qilib, masofaviy o‘qitish ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro va ta’lim vositalari bilan birgalikdagi faoliyati ularning makon va zamonda joylashishlariga invariant bo‘lgan o‘ziga xos maxsus didaktik tizimda amalga oshiriladigan interfaol faoliyatlarining maqsadga yo‘naltirilgan, tashkil qilingan jarayoni, degan xulosaga keladi. Eydos Markazi mutaxassislari A.V.Xutorskiy va boshqalar masofaviy o‘qitish tushunchasini shunday talqin qilishadi: o‘qitish sub’ektlari (ta’lim oluvchilar, pedagoglar, tyutorlar va boshqalar) makon va vaqt bo‘yicha bir-birlaridan uzoqda turib telekommunikatsiya vositalari yordamida umumiy o‘quv jarayonini amalga oshiradi. MESI mutaxassislari V.P.Tixomirov va boshqalar tomonidan masofaviy o‘qitish deganda shunday ta’lim texnologiyasi tushuniladiki, bunda tyutor va ta’lim oluvchi turli joylarda joylashgan bo‘ladi hamda o‘qitish vositasi sifatida keystexnologiya, TV-texnologiya va tarmoq texnologiyalaridan foydalaniladi.

M.V.Moiseevaning ishida masofaviy o‘qitish sirdan o‘qitishning bir turi, ya’ni kompyuter telekommunikatsiyalari, zamonaviy yangi axborot texnologiyalari vositalaridan maksimal darajada foydalanish va o‘quv jarayonining barcha qatnashuvchilari orasida faol axborot almashish nazarda tutilishi kerakligi tushuntiriladi. Mazkur fikrlarni umumlashtirilgan holda mutaxassislar masofaviy o‘qitishni tyutor bilan ta’lim oluvchilar orasidagi munosabatlar masofadan turib amalga oshiriladigan va o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan internet texnologiyalarining spetsifik vositalari yoki interfaollikni ko‘zda tutadigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalari)ni o‘zida aks ettiradigan ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydilar. Siz o‘qitish bilan bir qatorda ish bilan ham shug‘ullanishingiz mumkin. Aslida masofaviy o‘qitishni tanlagan

abiturentlarning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta'limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o'qishingiz mumkin; Mablag'ingiz tejaladi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta'lim darajasi o'quv markazlaridagi oddiy to'lovdan ko'ra ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim eng to'g'ri yo'l; Vaqtingizni tejang! O'quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtingizni tejashingiz mumkin. Onlayn ta'limda siz istagan hududda ma'lumot olasiz; Agar talaba o'zini intiluvchan hisoblasa, masofaviy ta'limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi o'quvchilar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroq; Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak; Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi. Siz qay bir yo'sinda ta'lim olishingizdan qat'iy nazar, bularning bari siz mukammal bilim olishingizga ko'maklashadi. Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jaraeni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit erdamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jaraen ekan. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jaraenini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi. Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va mul'timediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi. TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televideniye vositasi erdamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtieriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi. Masofaviy o'qitishning va

masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud. Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi. Masofaviy o'qitish tizimi uzluksiz ta'lim tizimida kunduzgi, sirtqi, eksternat o'qitish tizimlari qatorida ko'rilishi kerak. Pedagogikaning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettiradigan shaxsiy yo'naltirilgan endoshuv dunò pedagogik jamoalari tomonidan zamonaviy ta'lim tizimlarining barcha shakllari uchun tan olingan. O'qitish markazida o'qitish jaraeni emas, talabaning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatidan kelib chiqadigan bilish faoliyati, o'rganish turadi. O'qituvchining faoliyati talabalarning mahsuliy faoliyatining tashkil etilishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Binobarin, ta'lim tizimining asosiy maqsadi shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, axborotlar bilan ishlashni o'rgatishdir. Masofaviy o'qitishdagi shaxsiy yo'naltirilgan yondoshuv Internet taqdim etaetgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda o'quv jaraenining ta'lim darajasini sezilarli oshiradi. Masofaviy o'qitish jaraenini shunday pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimki, talabalarning quyidagi imkoniyatlari shakllansin: - aniq ilmiy èki amaliy muammolarni yechishga tadbiiq eta oladigan zaruriy fundamental bilimlarni olish; - bilish faoliyati jaraènida kelib chiqqan muammolarni do'stlar bilan hal etish; - qo'yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborot manbalari bilan ishlash; - barcha mavjud muammolarni bartaraf etish, egallangan bilimlarni amaliètda qo'llash. -Internet texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil kuzatishlar olib borish;- o'z bilim darajalarni, erishilgan yutuqlarini baholash imkoniga ega bo'lish, o'z faoliyatini to'g'riley olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva B., Aliyev N. Pedagogical Ability In Self-Development Of A Future Primary School Teacher //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-153.
2. Aliyev N., Ergasheva D. METHODS OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1679-1681.
3. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
4. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.

5. Abdullayeva B., Aliyev N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogik qobiliyatning ahamiyati //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-78.
6. Abdiqayumovich A. N., Abdiqayumovna I. M. Fur'e Method for Solving Boundary Value Problems Placed in Parabolic Type Equations //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 107-113.
7. Abdullayeva B. S., Aliyev N. A., qizi Ergasheva D. S. Improving self-development competency of future primary class teachers //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 274-277.
8. Sayfutdinova A. B., Abdiqayumovich A. N. THEORETICAL ISSUES OF INCREASING TEACHING EFFICIENCY BASED ON MODERN ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY CLASS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 233-239.
9. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna, & Aliyev Nurillo Abdiqayumovich. (2022). IMPROVING THE COMPETENCE OF THE FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHER IN SELF-DEVELOPMENT. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(12), 12-14.
10. Abdiqayumovich A. N. et al. Innovative Approaches in Mathematics (Pisa and Timss Programs) //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 116-118.
11. Yusupova A. K., Aliyev N. A. SOME CONSIDERATIONS FOR TEACHING PROBABILITY THEORY AND MATHEMATICAL STATISTICS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 11. – С. 1183-1191.
12. AB Sayfutdinovna, AN Abdiqayumovich IMPROVING SELF-DEVELOPMENT COMPETENCY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS // Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (8), 509-512.
13. Abdullayeva, B. S., Abdullayeva, B. S., & Aliyev, N. A. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 605–609.
14. Aliyev, N; Davronova, N. (2023). PULMONOLOGIYA TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 610-613.
15. N.A. Aliyev. (2023). FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT SKILLS FOR FUTURE PRIMARY TEACHERS. Scientific Impulse, 2(15), 363–367

16. Aliyev, N. A., & Sobirova, M. R. qizi. (2023). MASALALAR BILAN DASTLABKI TANISHUVNING INNOVATSION ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 659–666.
17. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). CHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723.
18. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLARNI OLDINI OLISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 705-708.
19. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.
20. Sarvarbek Gayratjon og M. et al. ONKOLOGIK KASALLIKLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YANGILIKLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 36. – №. 1. – C. 95-99.
21. Erkinjon o'g'li M. X. BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT.
22. Abdurazakova A. I. THE HARM OF DISHWASHING DETERGENTS AND ITS PREVENTION This article contains information about the work carried out in the Republic of Uzbekistan in maintaining public health, chemical detergents, their types and negative impact on human health and scientif //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 24. – C. 212-214.
23. Abdurazakova I. A. IDISH YUVISH VOSITALARI ZARARI HAQIDA //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-2 (104). – C. 11-13.
24. Abduraxmonovna A. I. KOLLOID ERITMALARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 9.
25. Abduraxmonovna A. I. BIOGEN ELEMENTLARNING ODAM ORGANIZMIDAGI BIOLOGIK FAOLLIGI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 9.
26. Abdurakhmonovna A. I., Ruzmatjonovich A. R. INFECTIOUS DISEASES AND THEIR PREVENTION //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.
27. Абдуразакова И. А. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА КРАСНЫХ ДОЖДЕВЫХ ЧЕРВЕЙ В КАЛИФОРНИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – C. 901-905.